



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

QURILISH KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI

Visola Narziyeva Safarbekovna
“Sambhram” universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekistonda qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida strategik boshqaruvni tashkil etish masallari va uning tarkibiy qismlari tahlil qilingan hamda xorijiy olimlar hoyalari asosida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik boshqaruv, bozor iqtisodiyoti, tashkiliy tuzilma, moslashuvchanlik, kichik biznes, startaplar, innovatsiyalar bo‘limi, innovatsion bo‘lim, kompaniyalar strategiyasi.

Annotatsiya:

V dannoy statye proanalizirovaniy voprosy organizatsii strategicheskogo upravleniya na predpriyatiyax po proizvodstvu stroitelnoy produkcii v Uzbekistane, rassmotreny yego osnovnyye sostavnyye elementy, a takje na osnove nauchnykh vzglyadov zarubejnykh uchyonnykh razrabotany nauchno obosnovannyye predlojeniya i rekomendatsii.

Klyuchevyye slova: strategiya, strategicheskoye upravleniye, rynochnaya ekonomika, organizatsionnaya struktura, gibkost, malyy biznes, startapy, innovatsii, innovatsionnyy otdel, strategiya kompaniy.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Abstract:

This article analyzes the issues of organizing strategic management in construction materials manufacturing enterprises in Uzbekistan and examines its key components. Based on the scientific views of foreign scholars, the study develops scientifically grounded proposals and recommendations for improving strategic management practices.

Keywords: strategy, strategic management, market economy, organizational structure, flexibility, small business, startups, innovation, innovation department, corporate strategy.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda oshirilayotgan tub islohotlar zaminida qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga oid bir qator huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹gi qarorida ekologik toza, resurstejamkor va energosamarador qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda qurilishda ulardan foydalanishni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiyasini ta’minlash vazifalari belgilangan.

Ta’kidlash joizki, muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2026-yilning 25-iyun kuni o‘tkazilgan materiallari tarmog‘ida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida aynan, qurilish materiallari sohasini quruvchining ishonchini qozonadigan, sifat, standart, assortiment va narx bo‘yicha kompleks yechim taklif

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-365-son qarori. 01.12.2025-yil.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

qiladigan tarmoqqa aylantirish lozimligini ta'kidladi².

Shu o'rinda statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, qurilish sanoati dunyoda jahon bozorida yetakchi o'rinlarda bo'lib bozor hajmini 2023-yilda 12,7 trln so'mni, 2024-yilda 14,7 trln so'mni hamad 2025-yilga kelib esa 13,4 trln so'mni tashkil etgan. Bozor hajmining 2025-yildagi sekinlashishga geosiyosiy, inflyatsiya va moliyaviy institutlarning foiz stavkalarining asosiy sabablardan hisoblanadi. Prognozlariga ko'ra 2025-2034-yillarda qurilish boxorining hajmi 21,7³ trln so'mga o'sishga, o'rtacha yillik o'sish esa 5, 5% ni tahmin qilinmoqda.

Jahon bozorida ushbu sektorda Yevropa ittifoqi davlatlarning ulushi 5-6%ni, O'zbekistonni YAIMdagi qurilish sanoatining ulushi 2023-2024-yillarda 6,5-7,5 % ni tashkil etgan bo'lib, O'zbekiston "xizmatlar + sanoat drayverli iqtisodiyot"ga o'tishini rejalashtirgan. 2030-yilgacha qurilish sanoatining YAIMlagi ulushini 5,5-6,5 % ni tashkil etadi biroq hajm jihatdan ortish tendensiyasi davom etishi prognoz qilinmoqda. O'zbekistonda qurilish sohasiga katta e'tibor qaratilayotgani va uning YAIMdagi ulushini o'sishiga asosiy sabablardan biri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarda davlat investitsiyalari va uy-joy dasturlari ta'sirining yuqoriligi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid yondashuvlar

Alfred D. Chandler Jr.ning "Tashkiliy tuzilma strategiyaga ergashadi" (Structure follows strategy) g'oyasi uning Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise asarida 1962-yilda nashr etilgan bo'lib, g'oyaning mazmuni shundan iboratki, korxona avvalo uzoq muddatli strategiyasini ishlab

²Sh.M.Mirziyoyev raisligida 25-iyun kuni "Qurilish materiallari tarmog'ida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi" yuzasidan videoselektor yig'ilishi. 25.06.2026yil.

³<https://www.oganalysis.com/industry-reports/construction-market.com>




International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

chiqishi zarur, strategiya o'zgarganidan so'ng, uni samarali amalga oshirish uchun tashkiliy tuzilma ham mos ravishda o'zgartirilishi kerak deb biladi. Shuningdek, agar strategiya va tuzilma o'zaro mos bo'lmasa, korxona o'z maqsadlariga samarali erisha olmaydi deb ta'kidlashdi (1-rasm).



1-rasm. Alfred D. Chandler Jr.ning “Tashkiliy tuzilma strategiyaga ergashadi” g‘oyasining mazmun va mohiyati

U o'z asarida strategiyaga tushunchasini shunday yoritib beradi “Strategiya - bu korxonaning asosiy uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur harakat yo'nalishlari va resurslarni taqsimlashdir”. Uning bu qarashlari bugungi zamonaviy dunyoning barcha korxona va tashkilotlar jumladan qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining strategik boshqaruvini mazmun mohiyatini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biroq, uning g'oyasida ba'zi bir aniqlashtiruvchi holatlar mavjud deb o'ylaymiz. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik kompaniyalar jumladan qurilish kompaniyalarning tashkiliy tuzilmalari mavjud strategiyani tashqi ta'sir omillar (texnologiyalar, bozor va raqobat) asosida cheklashi va uni o'zgartirishi mumkin.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ayniqsa, kichik biznes, startaplar yoki innovatsion kompaniyalarda strategiya va tuzilma ko‘pincha bir vaqtda shakllanadi hamda doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Shu bois, fikrimizcha ushbu nazariya bugungi kunda moslashuvchan boshqaruv, innovatsion rivojlanish va tez o‘zgaruvchan biznes muhitini to‘liq qamrab olmaydi.

Tahlil va natijalar

Qurilish korxonasida strategik boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan institutsional muhitning rivojlanganligiga bog‘liq. Mustahkam huquqiy baza, samarali davlat tartibga solishi, moliyaviy institutlar va innovatsion tizimlar korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Ayniqsa mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida farmonning 2 “Barqaror iqtisodiy o‘rish orqali aholi farovonligini ta‘minlash” yo‘nalishining 45-bandida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish maqsad etib belgilangan. Shuningdek, 49-bandida esa, “Investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish” belgilangan ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmi yillik o‘rtacha 5 - 7 foiz o‘rishini ta‘minlash bosh istiqbolli uchimini topishga qaratilgan muhim vazifadir.

Ta‘kidlash joizki, strategik boshqaruv qurilish korxonalarining bozor sharoitida barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan boshqaruv vositasi hisoblanadi. Uning mohiyati korxonaning mavjud resurslarini kelajak maqsadlari bilan bog‘lash, tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashish va raqobat ustunligini ta‘minlashdan iborat. Shu bois, korxonalarning strategik boshqaruvida resurslarni samarali



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

taqsimlash eng asosiy maqsadlardan biridir (1-jadval).

1-jadval Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida strategik boshqaruvni amalga oshirishda asosiy turlari⁴

T/r	Resurs turi	Taqsimlash obyekti	Kutiladigan samara
1.	Moliyaviy resurslar	Investitsiyalar, modernizatsiya, innovatsiyalar	Rentabellikning oshishi
2.	Mehnat resurslari	Mutaxassislar, muhandislar, ishchilar	Mehnat unumdorligining o'sishi
3.	Moddiy resurslar	Xomashyo, materiallar, ehtiyot qismlar	Tannarxning pasayishi
4.	Texnika va uskunalari	Ishlab chiqarish liniyalari	Quvvatdan to'liq foydalanish
5.	Axborot resurslari	ERP, MES, CRM, BI tizimlari	Tezkor qaror qabul qilish
6.	Vaqt resurslari	Ishlab chiqarish grafigi, loyihalar	Muddatlarga rioya qilish

Tashkiliy tuzilmani takomillashtirish borasida strategik rivojlanish markazi va innovatsiyalar bo'limini tashkil etish maqsadga muvofiq. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida Innovatsiyalar bo'limi (Innovation Department)ni tashkil etish korxonaning strategik rivojlanishini ta'minlaydigan muhim tashkiliy o'zgarish hisoblanadi.

Bu bo'limning vazifasi faqat yangi texnologiyalarni joriy etish emas, balki mahsulot, ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv va marketing sohalarida innovatsiyalarni tizimli ravishda shakllantirish va amalga oshirishdan iborat

⁴ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

bo‘ladi.

Agarda ushbu bo‘lim tashkil etilgan taqdirda yangi turdagi yuqori mustahkam beton, energiya tejovchi materiallar, ekologik xavfsiz mahsulotlar, import o‘rnini bosuvchi qurilish materiallarini ishlab chiqishga mas’ul bo‘ladi. Natijada biz tadqiqot olib borayotgan korxonaning bozor ulushi kengayadi, eksport imkoniyatlari ortadi va mijozlar ehtiyoji yaxshiroq qondiriladi.

Shuningdek ushbu bo‘lim yangi texnologiyalarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, energiya tejovchi uskunalarni joriy qiladi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqadi, resurslar sarfini optimallashtiradi. Buning natijasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishda energiya ka sarflangani bois, mahsulot tannarxi pasayayishiga imkoniyat yaratiladai va mehnat unumdorligi ortishiga erishiladi.

Albatta ushbu bo‘limning eng asosiy maqsadi korxona uchun investitsiyalarni davlat grantlari, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, xususiy investorlar, va venchur investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-21-sonli Farmoni. 2026-yil 16-fevral.
2. Ansoff, H. I., and P. A. Sullivan. 1993. “Optimizing Profitability in Turbulent Environments: A Formula for Strategic Success.” Long Range Planning 26, no. 5: 11–23. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(93\) 90073-O](https://doi.org/10.1016/0024-6301(93) 90073-O). Augier, M., and J. G. March. 2007. “The Pursuit of R2.
3. Porter, Michael E. (1980). Competitive Strategy. Free Press. ISBN 978-0-684-84148-9.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
4. Setting the Record Straight: The Intellectual Legacy of H. Igor Ansoff (1918–2002).
 5. <https://stat.uz/uz/>
 6. https://en.wikipedia.org/wiki/Strategic_management.com.